

## ULUG‘BEK HAMDAMNING “TOSH” HIKOYASIDAGI RAMZIY OBRAZLAR

Serkaboyeva Sevinch

KIUT talabasi

*Annotatsiya:* Maqolada ramziy obraz tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Ulug‘bek Hamdam falsafasi mohiyati va uning ijod laboratoriyasi haqida fikr yuritilgan. Yozuvchi hikoyalarda badiiy obrazlar va ularning missiyasi tahlil qilingan. Ushbu maqola ramziy obrazlar tasnifi va talqin muammosini yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Tosh yoki yovuzlikning tug‘ilish“ hikoyasi misolida o‘rganishni ko‘zda tutadi.

*Kalit so‘zlar:* tosh, ramz, ayol, yovuzlik, qon.

Badiiy ijod jarayonida qo‘llaniladigan ramzlar o‘zining xarakteri, imkoniyatlari va bajaradigan vazifalari jihatidan alohida qimmatga ega. Borliqni o‘z holicha emas, badiiy aks ettirishining turlaridan biri ramz hisoblanib, u qadimdan to bugungi adabiy jarayongacha yashab kelmoqda. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida “Ramz – (arabcha so‘z bo‘lib – imo-ishora, imlash) simmvol, ko‘chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko‘chma ma‘no kasb etuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning badiiy obraz tasnifiga doir izlanishlarini alohida e‘tirof etish lozim. Olim badiiy obrazni quyidagicha tasniflaydi: “Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra ijodiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko‘ra realistik, romantik, surrealistik va b., yaratilish uslubiga ko‘ra fantastik, grotesk; xarakter xususiyatlar va estetik belgisiga ko‘ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanaveradi“. Umumlashtirish darajasiga ko‘ra badiiy obrazlar ikki jihatdan tasnif qilinadi. Birinchisi ko‘proq inson obraziga tatbiqan bo‘lib, individual obrazlar, xarakter va tipik obraz (tip)ga ajratiladi. Umumlashtirish darajasiga ko‘ra ikkinchi jihat muayyan shaklda turg‘un holatidagi badiiy obrazlar sanalib, asardan asarga, davrdan davrga, ko‘chib o‘tish xususiyatiga ega motiv, topos, arxitep deb yuritiluvchi obrazlardir. Masalan: “armon“, “orzu“, “sog‘inch“, “yomg‘ir“, “soya” kabi motivlar bir yoki bir nechta ijodkorning asarlarida qaytarilib turadi, lekin har qaysisida alohida mazmun kasb etadi. Ramziy obraz va uning xususiyatlarini Ulug‘bek Hamdamning “Tosh” hikoyasi orqali ochib beramiz. Avvalo, “Tosh” hikoyasiga qo‘yilgan ikkilamchi nom, “Yovuzlikning tug‘ilishi” haqida fikr yuritsak. Simvolizatsiya (ramzlashtirish) asosida mavzudayoq o‘quvchi tafakkurida bir qancha tosh bilan bog‘liq metaforalar akslana boshlaydi. Tosh yurak, tosh dil, qahri qattiq, toshmehr kabi ko‘chimlarga asos bo‘luvchi tosh detail orqali inson botiniga nazar tashlaymiz. Hikoyada tosh, sirtmoq, baliq, qiz, mo‘ysafid, quyosh

ramziy obrazlariga duch kelamiz. Bu kabi obrazlar asar badiiyati va g'oyasini ochib beruvchi ochqich vazifasini bajargan, shu sababli hikoyaning boshlanmasiga e'tibor qarataylik. Hikoyada qahramonning qalbida ildiz otishga ulgurgan tushkunlikning sababini izlashi, ritorik so'rog' bilan boshlanadi. "Vaqt o'tgan sari tushkunlik yuragimning tub-tubida unib, mustahkamlanib, allaqanday jinsga, masalan, toshga aylanib borayotgandek". Hikoyada tasvirlangan tosh ramzi inson qalbining qa'rida yotgan iztirobning timsolidir. Qahramon doim iztirobda, uning qalbini o'rtayotgan tushkunlikka sabab, qahramonimiz bo'yniga solingan go'yoki sirtmoq.

Voqealarning "ong osti" kechishi orqali obrazlilik, tasviriylik va emotsionallik sodda metaforaga ko'chadi. Toshdek tuz- tuzdek tosh. Shu birgina zidlanishning o'ziyoq qahramon fikrida bo'linish mavjudligini ko'rsatib beradi. Asar boshidan beri o'z-o'zini ikki tomonga bo'layotgan, odam bo'la turib odamlarga qo'shib ketolmayotgan, haqiqiy odam bo'la olmayotganligidan yozg'irgan bu kimsa "yondosh yo'lakka tushib oladi". Inson hayoti davomida ikki chiziqdan birini tanlaydi. Biri to'g'ri, ikkinchisi esa xato. Ehtimol, "daraxtlarning kuzgi qo'shig'ini birrov" tinglab chiqmoqchi bo'lgan hikoya qahramonining qalbidagi tosh asar so'nggida "Yovuzlikka aylanishi" ayni shu qadamdam boshlangandir. Axir, fikrlar hodisani yetaklaydi-ku?! (Usmon Nosir, "Yoshlik" she'ridan)

Farqlanganlik shundaki, hikoyaning shu qismidan boshlab to yakundagi kulminatsiyasigacha ayolning go'zalligi, betakrorligi, jimjimasi madh etila boshlaydi. Majozan aytsak, tuzoqqa tushgan ko'ngilning chin ma'noda ayolga, ko'chma ma'noda esa dunyoga, nafsga, orzuga, hayolga, yetib bo'lmas maqsadga, umidga talpinishi boshlanadi. Rus adiblaridan Dobroblyubovning "Dunyoni go'zallik qutqaradi", - degan falsafasini ko'p eshitganmiz. Bu mushohadaga Ulug'bek Hamdam: "Agar dunyoni go'zallik qutqarganda nega o'sha Yelena tufayli Troya urishi bo'lib, qanchadan qancha insonlar qurbon bo'ldi. "Dunyoni go'zallik emas, go'zallikka bo'lgan baland munosabat, ma'naviy munosabatgina o'zgartiradi" deydi ijodkor suhbatlarining birida. Inson qayerda go'zallikni ko'rsa, payqab qolsa o'z mulkiga aylantirmoqchi bo'ladi. Go'zallik olamda, narsa va hodisalar mohiyatida mavjud, lekin shu bilan birgalikda tasvirlash qiyin bo'lgan murakkab, ziddiyatli hodisa. Go'zallik insonga tangri tomonidan berilgan be'baho ne'mat. Asarda tasvirlangan qizning portret chizgilaridan ham shuni anglashmiz mumkinki, qiz go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan "Nihoyat, endi topgandek edim o'sha qimmatni jon tishiga arzigulik o'sha borliqni", - deydi asar qahramoni. Qahramon go'zallik timsoli bo'lgan qizning ortidan shirin xayollar bilan yurib baliq olish uchun navbatda turgan odamlarga urilib ketganini ham sezmay qoladi.

Suvsizlikdan qiynalib baliqlar dam unisi, dam bunisi potrab osmonga sapchiydi, qahramonimiz shunda shoshib bizga qaraydi: “Yo piray, uning ko‘zlarida yovvoyi bir shavq o‘ynardi! Baliqlar har sapchiganda sichqonga tashlanish oldida turgan mushukdek negadir shaylanardi, shunda mening ko‘zimga qiz qip- qizil qonga botgandek ko‘rinadi “ (Hamdam U .1:517)... “ Bu tasvirlarda baliqning nafs timsoli sifatida tasvirlanganini payqashimiz mumkin. Donishmandlardan biri: “o‘z nafsini yengga olmagan inson hayotda hech bir ishga qo‘l urmagan inson”, - deganda haq edi. Darvoqe, o‘z nafsiga qul bo‘lgan insonni go‘zallik tark etadi. Ijodkorlarimiz aytganlardek: “Go‘zallik va nafs hech qachon kelisha olmaydi”. Nazarimizda, shu kelisholmaslik natijasida qahramonimiz “Birdan ko‘nglim aynidi, ich –ichimdan nimadir otilib keldi “ deya o‘nggaysiz ahvolga tushadi. Ijodkor tush vositasi bilan qahramonning ruhiy holatini talvasasini yoritib beradi: “Unda men qo‘limda tosh bilan ko‘chalarni kezar, duch kelgan odamning boshiga u bilan urar, qonatar ekanman, ko‘ngilga quloq tutsam, tog‘ning eng baland cho‘qqisiga chiqib, hayot debochasi- quyoshni toshbo‘ron qilishdek yovuz niyatda yonayotgan ekanman, hayolimda esa faqat manzara sotuvchi majaqlangan baliqning qontalash boshi va ayolning qip- qizil og‘zi aylanar, aylanar va aylanarmish ... Qahramonimiz qalbidagi iztirob hayotda yuz berayotgan daxshatlarga chiday olmay, kuchli g‘azab, talvasaga aylanadi, hatto u toshbo‘ron qilishgacha ham bordi, chunki quyoshning barcha nabotot olamining ibtidosi shakllanishida ahamiyati beqiyos. Go‘yoki qahramonimiz qalbidagi tizginsiz g‘alayonlardan asarda tasvirlanganidek: “Shunda men o‘zimni bir yon-u, qolgan barcha odamlarni ikkinchi tomon deya qabul qilaman”. Nazarimda, dunyo ahlining go‘zallik bobid qarashlari ikki tomon: go‘yo qahramonimiz kabi dunyoni go‘zalligini qalblardan qidiradigan va go‘zallikni tashqi qiyofasining mukammal yaratig‘ida deb bilguvchilardir.

Xulosa qilsak, bugungi kunda adabiy janrlardan eng keng tarqalayotgani bu hikoya janridir. Chunki globallashtirilgan davrda insonlarda yirik hajmli badiiy asarni o‘qishga va tahlil qilishga fursat yetmayapti. Adabiyotning bosh mavzusi esa inson va uning ruhiyati hisoblanmoqda. Shuning uchun maqolada Ulug‘bek Hamdam ning hikoyalaridagi obrazlar tadqiq qilindi. Yozuvchi o‘zining bir qancha hikoyalarida adabiyotning postmodernizm yo‘nalishi unsurlarini amalda qo‘llab ijod qilmoqda. “Musulmon”, “Bir piyola suv”, “Tosh yoki yovuzlikning boshlanishi” hikoyalari shular jumlasidandir. Uning obraz yaratishdagi psixonaliz mahorati tahsinga loyiq. Badiiy asar konteksti shu qadar quyma, samimiy tabiiy so‘zlarni

o‘z ichiga olganki, kitobxon beixtiyor personajning ruhiy olamini o‘zida qayta his qila oladi.

Muallif xarakteristikasi, portret, psixologizm, personaj nutqi kabi vositalar hikoyada inson obrazini to‘laqonli yaratishga xizmat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - T.: G‘.G‘ulom, 2017.
2. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - T.: Akademnashr, 2013.
3. [https:// tafakkur. Net](https://tafakkur.Net). Ulug‘bek Hamdam haqida.
4. [https:// kh-davron.uz/ kutubxona/ uzbek / ulug‘bek. hamdam-tosh](https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ulugbek.hamdam-tosh).